

ISSN 3030-3370


№ 3-4 (6) 2024



AYNIY VORISLARI

XALQARO ELEKTRON JURNAL
INTERNATIONAL ELECTRONIC JOURNAL





ISSN 3030-3370

“AYNIY VORISLARI”
xalqaro elektron jurnal

«НАСЛЕДНИКИ АЙНИ»
международный электронный
журнал

“AYNIY’S SUCCESSORS”
international electronic journal

№ 3-4 (6) 2024

TAHRIR HAY'ATI:

BOSH MUHARRIR

OBIDJON XAMIDOV,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

DILRABO QUVVATOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

MAS'UL KOTIB

NAFOSAT O'ROQOVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'zbekiston)
IBODULLA MIRZAYEV,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

DARMONOV O'RAYEVA,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

NURBOY JABBOROV,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

NURALI NUROV,
filologiya fanlari doktori, professor (Tojikiston)

SALIMA MIRZAYEVA,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

SHAVKAT HASANOV,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

NURETTIN DEMIR,
Pr. Dok. (Turkiya)

ALFIYA YUSUPOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (Rossiya)

FUNDA TOPRAK,
Pr. Dok. (Turkiya)

G'AYRAT MURODOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

SHOIRA AXMEDOVA,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

MEHRINISO ABUZALOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

GULCHEHRA IMOMOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc) (O'zbekiston)

DILSHOD RAJABOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

HUSNIDDIN ESHONQULOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

MA'RIFAT RAJABOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

QAHRAMON TO'XSANOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

ZUBAYDULLO RASULOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

MAQSUD ASADOV,

filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

BAXTIYOR FAYZULLOYEV,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

HILOLA SAFAROVA,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

SAIDA NAZAROVA,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

BAYRAMALI QILICHEV,

filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

DILOROM YO'LDOSHEVA,

filologiya fanlari doktori (DSc)i, professor (O'zbekiston)

ZILOLA AMONOVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)

NAFISA G'AYBULLAYEVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)

OTABEK NOSIROV,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (O'zbekiston)

YARASH RO'ZIYEV,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (O'zbekiston)

ZARNIGOR SOBIROVA,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'zbekiston)

SADOQAT MAXMUDOVA,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'zbekiston)

NODIR RO'ZIYEV,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (O'zbekiston)

NODIRA XOLIQOVA,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

RO'ZIGUL QODIROVA,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (O'zbekiston)

JAMOATCHILIK KENGASHI

Jamoatchilik kengashi raisi:

TO'LQIN RASULOV,

fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

Jamoatchilik kengashi raisi o'rinbosari:

ERGASH QILICHEV,

filologiya fanlari nomzodi, professor (O'zbekiston)

Jamoatchilik kengashi:

MUSLIHIDDIN MUHIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

JUMAQUL HAMROH,

filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

MAHMAYUSUF IMOMZODA,

filologiya fanlari doktori, akademik (Tojikiston)

NAFAS SHODMONOV,

filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

SHAVKAT HAYITOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
SHODMON SULAYMONOV,
filologiya fanlari nomzodi (O'zbekiston)

GULMUROD ZARIPOV,
texnika fanlari nomzodi, professor (O'zbekiston)
BIBISH JO'RAYEVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)
LAYLO SHARIPOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)
NAZORA BEKOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
ATOULLO AXMEDOV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)
GULI TOIROVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
LOLA NE'MATOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)
BASHORAT JAMILOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

MUHARRIRLAR:
SHOHSANAM DAVRONOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
RA'NO RAJABOVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
IXTIYOR KAMOLOV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
MEHRIGIYO SHIRINOVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TEXNIK MUHARRIRLAR:
NASIMA Qodirova, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
NIGORA Sayfullayeva, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUSAHHIHLAR:
RO'ZIGUL Qodirova
DILDORA Nazarova
SARVINOZ Raximova

Ustod Ayniy tarixnavislikda iste'dodli adib-u, yozuvchilikda tarixning ulug' bilimdoni edi. U xalqimiz o'tmishini xuddi o'zi yashayotgan zamonday mukammal bilar, bilganlarini esa badiiyat libosiga shu qadar ustakorona o'rab tasvirlardiki, undan zamon ruhi va chaqirig'i butun borlig'icha ufurib va jaranglab turardi. Uning qalami tarixdagi har bir nuqtadan jonli obraz yaratishga mohir edi.

Oxunjon Safarov,
filologiya fanlari doktori, professor

Hech ikkilanmay aytish joizki, Ayniy ijodiyoti XX asr dunyo adabiyotining eng nodir, eng e'tiborli va eng mazmundor sahifalaridan hisoblanadi. Ayniy badiiy ijodining poydevori ilm, ma'rifat, tarix, hayot va haqiqatdir. Ayniy asarlarini bilish ko'hna Sharq tarixi, madaniyati, mumtoz adabiyoti va milliy qadriyatlarini anglashga yo'l ochadi.

Ibrohim Haqqul,
filologiya fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Xabibovna,
Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)
(O'zbekiston)
Email: dilrabo68@mail.ru

**“QUTLUG‘ BIR MAKONDA GUL OCHDI CHECHAK”
 (SHODMON SULAYMON IJODIGA CHIZGILAR)**

Annotatsiya. Istiqlool davri Buxoro adabiy harakatchiligi taraqqiyoti iqtidorli shoir Shodmon Sulaymon nomi bilan chambarchas bog‘liq. Uning she‘r, g‘azal, manzuma, mansura, qasida singari lirik; qissa, hikoya kabi epik janrlardagi asarlaridan tarkib topgan qator to‘plamlari bugungi kunda respublikamiz adabiy jamoatchiligining, keng kitobxonlar ommasining e‘tiboriga tushgan va e‘tirofiga sazovor bo‘lgan. Ayniqsa, uning samimiyat va his-tuyg‘uga to‘la she‘riy bitiklarida Hamid Olimjon, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf kabi ulug‘ shoirlarga ergashish ruhi ustunlik qiladi. Maqolada shu jihatdan shoirning ijod laboratoriyasiga nazar solingan, uning she‘rlari mavzu-mundariyasi, janriy tarkibi va badiiy xususiyatlari jihatidan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: lirik qahramon, mavzu, Vatan mavzusi, muhabbat mavzusi, tabiat mavzusi, she‘r, g‘azal, manzuma, mansura, qasida, tashbeh, talmeh, sifatlash.

Аннотация. Развитие литературного движения Бухары в период независимости тесно связано с именем талантливого поэта Шодмона Сулеймана. Его стихи, газели, манзумы, мансуры и оды лиричны; ряд сборников его произведений в эпических жанрах, таких как новелла и повесть, были замечены и признаны литературным сообществом нашей республики и широкой читательской аудиторией. В частности, в его поэтических произведениях, полных искренности и эмоциональности, преобладает дух следования таким великим поэтам, как Хамид Алимджан, Абдулла Арипов, Мухаммад Юсуф. В этой связи в статье рассматривается творческая лаборатория поэта, анализируются его стихи с точки зрения тематического содержания, жанрового состава и художественных особенностей.

Ключевые слова: лирический герой, тема, тема Родины, тема любви, тема природы, стихотворение, газель, манзума, мансура, касыда, ташбех, тальме, квалификация.

Abstract. The development of the literary movement of Bukhara during the independence period is closely connected with the name of the talented poet Shodmon Sulaymon. His numerous collections, consisting of works in lyrical genres such as poetry, ghazal, manzuma, mansura, qasida; epic genres such as short stories and narratives, have attracted the attention and recognition of the literary community of our republic and the general public. In particular, his poetic works, full of sincerity and emotion, are dominated by the spirit of following such great poets as Hamid Olimjon, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf. In this regard, the article examines the poet's creative laboratory, analyzes his poems in terms of their subject-content, genre composition and artistic characteristics.

Key words: lyrical hero, theme, theme of the homeland, theme of love, theme of nature, poem, ghazal, manzuma, mansura, ode, tashbeh, talmeh, attributing.

Kirish. Buxoro adabiy harakatchiligi tarixi o‘zining yorqin sahifalariga ega. Ahmad Donish, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat singari ulug‘ adib-shoirlardan boshlangan mazkur jarayon davrdan davrga o‘tgan sayin to‘lisha bordi. Keyinchalik bu qatorga Toshpo‘lat Hamid, Jamol Kamol, Samandar Vohidov, Sadriddin Salim Buxoriy, Toshpo‘lat Ahmad, Oxunjon Safarov, Isroil Subhon, Nodira Afoqova, Laylo Sharipova singarilar kelib qo‘shildi. Ta‘kidlash kerakki, o‘tgan asrning 90-yillarida Buxoro adabiy muhiti bir qator ohorli nomlar hisobiga yana boyidi. Adabiyotga yangi bir to‘lqin kirib keldi. Buxoro adabiy harakatchiligiga yoniq ovoz, beg‘ubor hislar kuychisi sifatida bo‘y ko‘rsatgan shunday iqtidor egasi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo‘limi rahbari, “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalari tahririyati bosh muharriri, “Shuhrat” medali sohibi Shodmon Sulaymondur.

Asosiy qism. Shodmon Sulaymon “Xosiyatli kun” deb nomlangan ilk kitobi bilan she’rxonlar va adabiy jamoatchilik nazariga tushdi. Shu dastlabki to’plam bo’lajak shoirga ijodning badiiy ufqlarini ochdi va bir-biridan mazmunli kitoblarni nashr etilishiga pillapoya bo’ldi. She’rdan she’rga o’tgani sayin Shodmon Sulaymon badiiy tafakkuri teranlashib bordi. Va aytish mumkinki, juda qisqa muddatda respublikamizda ham tanildi, ulkan munaqqidlar nazariga tushdi. Uning “Oqqush saltanati” (1997, jamoa to’plam), “Xosiyatli kun” (2001), “Kuz xayoli” (2004), “Tug’ilgan kun” (2006), “Men baxtli yaralдим” (2015), “Otamning ayvoni” (2024) singari she’riy to’plamlari endilikda she’rxonlarning qalb mulkiga aylanib ulgurdi, desak mulolag’a bo’lmaydi. Shodmon Sulaymon she’rlarida qaynoq kechinmalar to’lqini, chuqur lirizm, Vatanga, xalqqa, ota-onaga o’tli muhabbat, samimiyat tuyg’ulari ufurib turadi.

Shodmon Sulaymon – Buxoro shuhratini respublika miqyosida yoyishga intilayotgan bugungi navqiron avlodning yorqin vakili. Shu bois shoir she’riyati haqida Oxunjon Safarov [11], No’mon Rahimjonov [10], Ibrohim Haqqul [4] singari yirik adabiyotshunoslar, Omon Muxtor [9], Jumaniyoz Jabborov [3], Safar Barnoyev [1] kabi katta ijodkorlar iliq fikrlarni bildirishgan. Shuningdek, G’ayrat Murodov [7], Husan Berdiyev [2], Laylo Sharipovalar [12] shoirning turli yillarda nashr etilgan to’plamlariga taqriz yozishgan.

Binobarin, taniqli adabiyotshunos N.Rahimjonov yoshlar she’riyatini tahlil qilar ekan, iqtidorli shoirlar qatorida Shodmon Sulaymon ijodi haqida iliq fikrlar aytadi: “... Shodmon Sulaymonning “Vatan”, “Otamga”, “Minora uxlamas”, “Dunyo”, “Girya”... singari she’rlarini ko’z-ko’z qilgim keladi” [10]. Yoxud shoir va adib Omon Muxtor: “Buxorolik shoir Shodmon Sulaymon: Ko’zimga lab bosgan muhabbat... Bularning har birida aniq manzara va “havo” bor. So’z jonsiz emas, harakatlanadi, ruh harakatini aks ettiradi” [9], deb yozadi. Bunday e’tiroflar boshqa adabiyotshunoslar tomonidan ham ko’p bor aytilgan.

Natija va muhokamalar. Serqirra olim, professor O.Safarovning Shodmon Sulaymonning birinchi she’riy to’plamiga yozgan so’zboshisida shunday fikrlarni o’qiymiz: “Fahmimcha, Shodmon she’rlarida iztirob turfa mavjlarda jilolanganday: ishq iztirobi (“Muhabbat”, “Dil yonar”), sog’inch iztirobi (“Qo’msash”, “Sog’indim”), ayriliq iztirobi (“Men sizni alishganim yo’q”), o’zni va o’zlikni anglash iztirobi (“Izlayverib”, “Tush”), umidsizlik va tag’oful iztirobi (“Xayrlashuv”, “Umidsizlik haqida qo’shiq”), burch va mas’uliyat iztirobi (“O’kinch”, “Otamga”), eh-hee, ko’ngil ko’chasida neki kechilguday bo’lsa, barchasiga xos iztiroblar ifodasi bor. Ha, ular bisyor, qay birida hazin pur ifodasi bor, qay biri umidga yo’g’rilgan va yana qay biri bamisoli “besamar tun, besamar tuyg’u”. Ammo hammasi Shodmon qalbining, aniqrog’i, lirik qahramonining entikishlari bo’lib, uning o’z ovozi va uslubini izlayotganidan shahodat bera oladi” [11, 4].

Shu bilan birga, Shodmon Sulaymonning nasrda ham ancha qalami charxlanib qolgan. Uning hikoya, esselari ham ko’pchilikning tiliga tushganligi ham, haqiqat. Shuning uchun bo’lsa kerak, yuqorida tilga olingan turli harakterdagi kuzatishlar: maqola, taqrizlardan tashqari, uning hikoyalariga ham iliq munosabatlar, talqinlar yuzaga keldi. Shu jihatdan Sohiba Karimovaning “Zamonaviy o’zbek nasrida tibbiyotga doir obrazlar talqini” nomli falsafa doktori dissertatsiyasida Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor, Shukur Xolmirzayev kabi ulug’ yozuvchilar hikoyalari qatorida uning “Uchinchi palata” nomli asari ham obyekt sifatida tanlangan va ishning muayyan o’rinlarida teran tahlil etilgan [5, 48, 53, 80, 81]. Bu esa ijodda yuksalib borayotgan, tobora serqirralik kasb etayotgan Shodmon Sulaymon asarlariga yangi o’zbek adabiyoti kontekstida baho berilayotganligini ko’rsatadi. Yana bir jihatni mamnuniyat bilan qayd etish kerakki, 2016-yilda otaxon-adabiyotshunos, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan madaniyat xodimi No’mon Rahimjonov sa’y-harakatlari bilan tartib berilgan va nashr etilgan “O’zbek adiblari” kitobiga Shodmon Sulaymon ham alohida figura sifatida kiritilgan [6, 420-421].

Shodmon Sulaymon o’zbek mumtoz shoirlari ijodini yaxshi biladi, zamondosh shoirlar asarlarini mutolaa qilishdan to’xtamaydi. Shuning uchun bo’lsa kerak, uning she’rlari xalq shoirlari Hamid Olimjon, O’zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf kabi ulg’ shoirlarga ijodiga izdoshlik seziladi. Bu satrlarning ohangdorligi, mazmunning salmoqdorligi, hayotiyiligidan yanada yorqin ko’rinadi. Ijodkor satrlari, Usmon Nosir aytganiday, quyilib “selday keladi”. Bunga shoirning “Men baxtdan yaralдим” saylanmasidagi she’rlar shahodat bera oladi.

Shoir she’rlari mavzu jihatidan ham rang-baranglik kasb etadi. Iqtidorli shoirning muhabbatning shirin iztiroblari haqidagi tizmalari, onani ulug’lovchi she’rlari, Vatan haqidagi manzumalarida uyg’oq

fikrli nozik qalb egasining turfa navolari o'z ifodasini topgan. Muhabbat mavzusida yozilgan she'rlar ham haqiqiy oshiq qalbning nozik his-kechinmalarini o'zida ifoda etadi. Ona, ota va singilga bag'ishlangan she'rlar esa shoirming eng yaqin insonlariga bo'lgan beqiyos mehrini, muhabbatini namoyish etib turadi. Qolaversa, shoirning mustaqillikka shukronalik ruhida bitilgan she'rlari bugungi kunlarimizning qadriga yetishga chorlaydi... Zero, u **Vatan** haqida yonib kuylaydi, she'rlari **muhabbat** tuyg'ulariga yo'g'rilgan. U **ona tilini** sevadi, uni madh etadi, nafaqat madh etadi, unga fido bo'la olishini baralla aytadi. Unga **yurt tabiati** ilhom soladi, tuyg'ularini junbushga soladi, natijada ohorli lirik obrazlar shoir she'rlarida milliy liboslari bilan bo'y ko'rsatadi.

Darhaqiqat, Shodmon Sulaymonning Vatan haqidagi bitiklari birorta shoirmi takrorlamaydi, uning o'xshatish-u tashbehlari ohorli, har satrida yurtga bo'lgan buyuk ishq ruhi ufurib turadi. Bu she'rlar manzuma, qasida, g'azal, mansura shakllarida yozilgan. Jumladan, uning "Iftixor" she'ri Vatan haqidagi go'zal manzumadir. She'r an'anaviy barmoq vazni 5+5=10 turoqda bitilgan.

Yurtim, desam, jo'shadi qalbim.

Tomirimda gupuradi qon.

Axir baxt va iqbol kuyiga

To'liq erur yana qay makon [15, 6].

Binobarin, yurt ishqida yongan lirik qahramon shunchaki "Vatanni sevaman" deb balandparvoz so'zlamaydi. Balki tomirida gupurayotgan qonda, yurt yangrayotgan baxt va iqbol kuyida unga bo'lgan qaynoq va beadoq mehrni tuyadi.

Olis moziy bag'rida yangrar

Bobolarning mag'rur na'rasi.

Har sahfası ulug' bir dovon –

Imonga yor har bir zarrasi [15, 6].

Lirik qahramonning qulog'iga olis moziy bag'ridan bobolarning mag'rur na'rasi eshitiladi. Vatan tarixining har sahfası ulug' bir dovonga qiyoslanadi.

Quchay deya tole manzilin,

Ma'rifatni bayroq qilgan u –

Dil to'rida abadiy to'lqin,

Dil to'rida pokiza tuyg'u [15, 6]

Lirik qahramon tole manzillarini shu Vatan baxtida ko'radi. "Ma'rifatni bayroq qilgan" Vatanning dil to'rida abadiy to'lqin yashaydi.

Bu el uyg'onadi –

Tinch va osuda

Zamonlar sha'niga shukrona ayta.

Ko'rkam imoratlar – qutlug' obida

Yanglig' yurt chiroyin ochganda qayta [15, 7]

Bu el har tongda tinch va osuda uyg'onadi. Zero, bu osudalik va tinchlikni xalqimizga istiqloq tuhfa etdi. Shu bois xalq qalbida mustaqillikka shukronalik ruhi barq urib turadi.

Iqtidorli shoir she'rlari janriy rang-baranglikdan tashqari, Maqsud Shayxzoda o'rinni ta'kidlaganiday, "o'zbek she'riyatining to'qqiz vaznida" bitilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Binobarin, aruzdagi go'zal g'azallar, an'anaviy barmoqdagi va erkin vazndagi she'rlar, sochma, qasida, faxriyalar bundan guvohlik beradi. Shoirning "Faxriya" nomli she'ri Buxoroyi sharif madhiga bag'ishlangan:

Jahon – bahri tamaddun, anda bir qirg'oq Buxoroman,

Hamon aylar takallum: "Pokiza tuproq Buxoro" man.

Minoram dovrug'i yetgan Arab birlan Ajam shohid:

Malaklar to'tiyo etgan muazzam toq Buxoroman [15, 10].

G'azal mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun tarmog'ida – hazaji musammani solim bahrida yaratilgan. Zero, shoir ta'biricha, jahon – tamaddun, taraqqiyot dengizi, Buxoro undagi bir qirg'oqdir. Bu tashbeh hayotiy mazmunga ega.

Qorong'u o'zbaki osmon Navoiysiz, Navoiysiz,

Boqar Oy arshidin nolon Navoiysiz, Navoiysiz.

Qilib "Qushlar-la suhbat" dil topardi "Chin suyukli"sin –

Ma'yusdir "Mantiq"-u "Bo'ston" Navoiysiz, Navoiysiz [15, 11]

"Navoiysiz" radifli g'azali falsafiy, hayotiy va tarbiyaviy mazmun kasb etadi. Bu g'azal ham an'anaviy hazaj bahri, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun rukni, musammani solim tarmog'ida yaratilgan. Zero, o'zbekning osmoni Navoiysiz qorong'udir. Agar unda Navoiy bo'lmasa oy ham ko'kdan nolon boqadi. Keyingi bayt talmeh bilan ziynatlangan. Ya'ni bunda Navoiyning "Lison ut-tayr", Attorning "Mantiqut tayr" dostonlari va Sa'diyning "Bo'ston" asarlariga ishoralar bor.

Saharda yo'l qarab, ko'kka boqarkan xastadil Jomiy,

Ko'zin yoshlar edi pinhon Navoiysiz, Navoiysiz.

Mo'min Mirzo tushimda qo'llarim ushlab, chekar faryod...

Yuzing sachradi ul qon, Navoiysiz, Navoiysiz [15, 11].

Dastlabki misrada xastadil Jomiy tilga olinadi. Jomiy – Navoiyning ustoz, chin do'sti. Bu ishora ham o'zining mantig'iga ega. Ya'ni shoir ustoz Jomiy ham Navoiysiz ko'zini yoshlab qoladi, demoqchi. Mo'min Mirzo Husayn Boyqaroning suyukli nevarasi edi. Biroq dushmanlarning ko'rolmasligi tufayli ochilmagan g'uncha yanglig' pok, katta iqtidorga ega Mo'min Mirzo o'ldiriladi. Unga ustozlik qilayotgan Navoiy bundan achchiq iztirobga tushadi. Shuning uchun shoir Mo'min Mirzo lirik qahramon tushiga kirib, uning qo'llarini ushlab, faryod chekadi. Shoir tush motivini she'rda ustalik bilan qo'llagan. Qolaversa, uzoq tarixning badiiy parchasini ko'z oldimizda badiiy gavdalantirgan.

Muqimiy, Furqat-u Zavqiyga erdi zavq begona,

Ulusdin ketdi deb iymon Navoiysiz, Navoiysiz.

Suyab Fitratni Bo'zsuv bo'yida qatlin kutar Cho'lpon,

Sovuqda qaltirar Usmon – Navoiysiz, Navoiysiz.

Cho'qir ko'ksini zog'lar, qon sukutda bosh egar Oybek,

Ko'zida mung qotib so'zon Navoiysiz, Navoiysiz [15, 11]

Yuqoridagi baytlarda talmeh poetik fikrni badiiy ifodalash vositasi sifatida namoyon bo'lgan. Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi mashhur shoirlar Navoiyni o'zlariga ulug' ustoz sanashgan. Navoiysiz ular ijodi ham zavqdan xoli bo'lar edi. Shoir yaqin tariximizning ayanchli sahifalarini nazardan o'tkazar ekan, Bo'zsuv bo'yida qatl etilgan qatag'on qurbonlari, ulug' shoirlar Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosirlarni tilga oladi. Akademik shoir Oybekka ishora qilar ekan, u Navoiysiz ko'ksin zog'lar cho'qib, qon sukutda bosh egadi, deydi. Umuman, g'azal ijtimoiy mazmunning chuqurligi, badiiy shakli, tarix bo'laklarining badiiy tajassumi sifatida g'azalchilikning istiqbol yillaridagi taraqqiyotida muayyan o'rinni ishg'ol etadi. Qolaversa, unda qo'llangan talmehlar – tarixiy shaxslar, badiiy asarlarning nomlari ham shoir aytmoqchi bo'lgan poetic fikrga kalit vazifasini bajaradi.

Shodmon Sulaymonning qasida uslubida bitilgan she'rlari ham mavjud an'ananing davomi sifatida ahamiyatli. Ularda Vatan madhi, istiqbolga, bugungi kunlarimizga shukronalik ruhi ufurib turadi. "Jur'at maydoni" she'ri zamonaviy barmoq vaznida yozilgan:

Buxoro – mangulik yorlig'i tekkan

Yurtlar karvoniga muqaddas mayoq.

Bunda oyat tinglab gullaydi tikan,

Bunda saksovullar yoqadi chiroq.

Niliy gumbazlarda o'tmish suroni,

Ulug' madrasada sharqona majlis.

Shu tuproq ulg'aytdi necha Sinoni,

Shunda kamol topdi ne ilohiy his.

Olis sarhadlarga uchgay laylaklar

Dunyoga yoyay deb ovozasini.

Ammo qishdan chiqmay kelgay daraklab,

Muazzam o'n ikki darvozasini... [15, 13]

Satrlar qatida Buxoroga bo'lgan yoniq muhabbat, mehr hislari alangalanib turadi. Taniqli adabiyotshunos I.Haqqulov shoir she'rlarini tahlil etar ekan, shunday yozadi: "Shodmonning ilhom qaynog'i, eng avvalo, Buxoro. Uning deyarli barcha she'rida jism-u joni ila yurtiga bog'langan buxorolik shoirning nafasini his eta olasiz. Ayniqsa, tarixiy tuyg'ularning yorqinligi va haqqoniyligi alohida ahamiyatga molikdir. Shodmonning she'rlarida tarix qa'rida ko'milib yotgan ko'hna dardlar emas, dard

va azobning tarixi aksini topgan” [4, 33]. Bu fikrlar juda asosli. Shoirning qaysi janrdagi she’ri bo’lmasin, ularda ko’hna va mo’ysafid, ayni paytda, navqiron Buxoro surati bo’y ko’rsatib turadi. Tahlil etayotganimiz she’r ham shoirning **faxriyasi**, yurtga muhabbatining tajassumi. Mangulik yorlig’i tekkan yurtlar karvoniga muqaddas mayoq – Buxorodir. Bu tashbehda shoirning muhabbat hislari ham qo’shilganligini anglamaslik mumkin emas. Qolaversa, Buxoro tuprog’i – muqaddas. “Buxoro quvvati islomi din ast”, deyiladi. Zero, shoir “Bunda oyat tinglab gullaydi tikan” tarzida tashxis yaratar ekan, xuddi shunga ishora qiladi. “Bunda saksovullar yoqadi chiroq” satri ham shoirning badiiy topilmasi deyish mumkin. Geografik nuqtai nazardan Buxoro cho’l zonasida joylashgan. Tashxis uchun qo’llangan badiiy obraz “saksovul” esa cho’l o’simligi. Niliy gumbazlar o’tmish suronlaridan so’zlaydi. Ular tarixning “tirik” guvohi, aslida. “Shu tuproq ulg’aytdi necha Sinoni” satri esa Buxoro yetishtirgan mutafakkir olim Ibn Sinoga ishora qiladi. Ushbu she’r **qasida janri** xususiyatlarini ko’p jihatdan ifoda etgan.

“Men Vatan deb yo’lga tushdim” deb boshlanuvchi sochma she’ri Vatan haqidagi go’zal qo’shiq yanglig’ jaranglaydi. Undagi ichki qofiya – sa’jdan foydanish xalq dostonlari uslubini yodga soladi. Vatanning bir parchasi bo’lgan Buxoro haqidagi bitiklar ham nihoyatda ohorli. Bu tizmalar iqtidorli ijod sohibining qadim tarixga guvoh ko’hna shaharga farzandlik izhorlari, milliy tuyg’u iftixori bilan limmolim: “Men Vatan deb yo’lga tushdim, men Vatan deb yo’lga tushdim, yurtim, seni jondan ortiq ko’raman, deb yo’lga tushdim. Sen otamsan, sen validam, o’g’lim yayrab o’sgan dalam, sen qay tomon yo’llar bo’lsang, boraman, deb yo’lga tushdim” [13, 4]. E’tibor berilsa, ushbu badiiy parcha xalq dostonlari uslubida bitilgan. Unda ichki ohangdorlik (otam, validam, dalam) saj’ mavjud. “Men Vatan deb yo’lga tushdim, shul chaman deb yo’lga tushdim, yo’lim to’ssa qay bir nokas yanchaman deb yo’lga tushdim. Ona bo’lib ko’zyoshimni artgan jondan aziz yurtim, tikaningni sanchaman, deb yo’lga tushdim” deb yozadi shoir. Uning lirik qahramoni chin vatanparvar inson. U Vatani uchun har nega tayyor fidoyi kishi. Ichki ohangdorlik satrdan satrga o’tgani sayin yanada sayqal topib, badiiy mazmun boyib borgan. Undagi “chaman”, “yanchaman”, “sanchaman” so’zlari shunchaki ohangdoshlik bo’lmay, matnda o’ziga xos kalit – ochqich vazifasini o’tab kelgan. Ya’ni lirik qahramon uchun Vatan yo’lidagi fidoyiligini yorqin ifodalovchi vositaga aylangan. “Men Vatan deb yo’lga tushdim, jon Vatan deb yo’lga tushdim, qon silqigan yillar bag’rin titaman, deb yo’lga tushdim. Momo dedim, bobo dedim, To’maris-u mard Shiroqni, yov yo’liga tutaman deb yo’lga tushdim” [4]. “Qon silqigan yillar” – Vatanning qonli kechmishi sahifalarini ifoda etadi. Qolaversa, Momo (Momo Havo), Shiroq, To’maris singari tarixiy nomlarga ishora qilish orqali talmeh yaratib, Vatanning ko’hna tarixi boyligini ifoda etadi. “Men Vatan deb yo’lga tushdim, men Vatan deb yo’lga tushdim, Cho’lpon menga bitgan xatni topaman, deb yo’lga tushdim. Ko’zga suray, deya chopdim Qodiriyning so’ngaklarin, ko’ksi giryon Usmon xokin o’paman, deb yo’lga tushdim”. Vatan deb yo’lga tushga lirik qahramon yaqin tarixning qora dog’lariga duch keladi. Talmeh orqali ifodalangan ushbu satrlarda shoir Cho’lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir kabi qalbi qatag’onning qilichida chopilib ketgan millat oydinlari – ma’rifatparvar, erkarparvar ijodkorlarga ishora qiladi. “Men Vatan deb yo’lga tushdim, hur chaman deb yo’lga tushdim, sen istasang, osmonlarga uchaman, deb yo’lga tushdim. Asli mening validamdir – qo’li qadoq onalaring, oq sochlarin silab, mahkam quchaman, deb yo’lga tushdim” [4].

Zero, shoir Vatanni onaga qiyos etar ekan, unga fido bo’lish onaga fido bo’lish bilan barobar ekanligini uqtiradi. “Men Vatan deb yo’lga tushdim, bol Vatan deb yo’lga tushdim, sahrosi gul, g’unchalari ol Vatan, deb yo’lga tushdim. Bir lahzalik mehmon derlar bu dunyoda odamzodni, men sendaman, sen ham menda qol, Vatan, deb yo’lga tushdim!” [4]. Bu satrlardagi tashbehlar ham an’anaviy bo’lsa-da, ohorli mazmuni bilan she’rxonni o’ziga tortadi. Binobarin, Vatanning har qarichi aziz, degan tushunchani shoir “sahrosi gul”, “g’unchalari ol” tarzidagi obrazli ifodalarda she’rxonga yetkazadi. Bu misralardan Oybek ohanglarini eshitish mumkin:

Vatanni sev, tuprog’ini o’p,
Har qarichi muqaddas bizga.
Cho’lidagi hatto quruq cho’p,
Jondan aziz yuragimizga [8, 107].

Bunda cho’ldagi quruq cho’p va saksovul obrazlari ikki vatansevar ijodkor tuyg’ularini birlashtirib turadi.

Ma'lumki, inson tuproqda tug'iladi, tuproqda yashaydi va yana shu tuproq bag'riga singib ketadi. Shoir ana shu hayotiy fikrni "Bir lahzalik mehmon derlar bu dunyoda odamzodni, men sendaman, sen ham menda qol, Vatan, deb yo'lga tushdim!" tarzida ifoda etadi. Bu she'rdagi xulosaviy fikr sifatida jaranglaydi.

Keyingi yillarda Shodmon Sulaymon nihoyatda qaynoq ijod olamida yashadi. Uning yangi ijodiy izlanishlarning mahsuli sifatida qasida-doston ("Vatan"), qasida ("Jur'at maydoni"), dramatik doston ("Iste'fo"), ballada ("Tug'ilgan kunim haqida ballada", "Ruxsat haqida ballada"), oratoriya-doston ("Yetti pir") kabi xilma-xil janr va mavzudagi asarlar dunyo yuzini ko'rdi. Darhaqiqat, uning ilk she'rlarida yuz ko'rsatgan qasida ohangi shunday janrning ancha yetuk namunalarini yaratish uchun yo'l ochdi. Buning asosida, hech ikkilanmay aytish mumkinki, Vatanga, ayniqsa, Buxoroga bo'lgan adoqsiz mehr tuyg'ulari yotadi. "Iste'fo" dramatik dostonini ham ulug' salaflarga, xususan, Fitratning "Shaytonning tangriga isyoni" mazmuni, ruhiga ergashib yozilgan asar sifatida baholash mumkin. Shoir ballada janriga ham o'ziga xos uslubni – avtobiografizmini olib kirdi. "Yetti pir" oratoriya-dostoni ham zamonaviy dostonchilikdagi sinkretizm, badiiy sintezning betakror namunasi bo'lib, avvalo, shoirning diniy sarchashmalarga chuqur kirib borayotganligini ko'rsatsa, ikkinchidan, ustoz-ijodkor Oxunjon Safarovning "Buxoriylar yoki o'n ikki yulduz haqida" dostoni ohanglarini yodga soladi.

Xulosa. Yuqorida biz buxorolik nozikta'b, hassos bir shoirning she'r chamaniga baholi qudrat sayohat qilib, undan anglaganlarimizni, siz, aziz she'rxonga ulashishga harakat qildik. Zero, badiiy so'zning sir-sinoatini teran tuyg'ulari bilan tuya olgan, qalbida hayotga, insonlarga, Vatanga bo'lgan sadoqatni, mehrni joylagan Shodmon Sulaymonning qalb gavhari – go'zal, serjoziba bitiklari bag'ridan taralayotgan munis ohanglar, qalb navolari yanglig' she'riyatimizni bezashda davom etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Барноев С. Хур сўз муборак // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2000. – 11 август.
2. Бердиев Х. Элнинг юксакиги ёниқ дилларда // Самарқанд, 2003. – 6 сентябрь.
3. Жабборов Ж. Навқирон овозлар // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2000. – 11 август;
4. Ҳаққулов И. "Мен умримни яшаётирман..." // "Бухоро мавжлари", 2005. – №4. – Б. 33–34.
5. Karimova Saxiba Baxodirovna. Zamonaviy o'zbek nasrida tibbiyotga doir obrazlar talqini. filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (doctor of philosophy) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – T., 2023. – B. 48, 53, 80, 81.
6. Мирвалиев С., Шокирова Р. Ўзбек адиблари. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт матбаа-ижодий уйи, 2016. – 488 б.
7. Муродов Ғ., Рустамов А. Яхши шеър – дил ҳамроҳи // Бухоронома, 2001. – 15 октябрь.
8. Ойбек. Мукамал асарлар тўплами. 19 томлик. 2-том. – Т.: Фан, 1975. – 104 б.
9. Омон Мухтор. Баҳор соғинчи ёки юрак йўлаги // Халқ сўзи, 2000. – 15 сентябрь;
10. Раҳимжонов Н. Туғёнли қалб тўлқинлари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2010. – 27 август.
11. Сафаров О. Изтиробнинг умидбахш мавжлари. Китобда: Шодмон Сулаймон. Хосиятли кун. – Бухоро: Бухоро, 2001. – Б. 3-4.
12. Шарипова Л. "Мен Ватан деб йўлга тушдим..." Китобда: – Бухоро: Адабий Бухоро, 2024. – Б. 123-130.
13. Шодмон Сулаймон. Мен бахтли яралдим. – Т.: Наврўз, 2015. – 136 б.

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
SADRIDDIN AYNII HAYOTI VA IJODIGA DOIR TADQIQOTLAR			
1.	Абдулҳаев Зоҳид Муҳаммадович	Асноди шарҳихолӣ ва осори адабии С.Айнӣ дар нигоштаҳои шарифҷон-махдуми Садри Зиё	6
FOLKLORSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI			
2.	Xolmurodov Abduhamid	Tarixiy haqiqat va badiiyat	16
3.	Quvvatova Dilrabo Xabibovna	“Qutlug‘ bir makonda gul ochdi chechak” (Shodmon Sulaymon ijodiga chizgilar)	20
4.	Расулова Умида Йўлдош қизи	Фикрату Фитрату Фурқат	26
5.	Boltayeva Gulchehra Shokirovna	Furqat ijodida mashrabona ohanglar	31
6.	Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna	“Rohati dil” dostonida didaktik obrazlar talqini va doston vazni haqida	35
7.	O‘roqova Nafosat Yoriyevna	O‘zbek mumtoz she‘riyatida gullar obrazi	40
8.	Maxmudova Sadoqat Xolmatovna	Jadid she‘riyatida vatan mavzusi talqini	46
9.	Мирзаев Хайём Тошқулович	“Рисолаи рубой” падидаи тозае дар арӯзшиносии асри XIX	53
10.	Burieva Firuza Normurotovna	Mustaqillik davri she‘riyatida janr-shakllarga doir an‘ana va novatorliklar	60
11.	Tashova Dilorom Salimovna	Istiqlol davri she‘riyatida ikkilik tizimidagi badiiy shakl izlanishlari	64
12.	Shukurova Bahor Boltayevna	Hikoyaning lingvopoetik xususiyatlari	69
13.	Xudoyorova Gulrux Normurod qizi	Abdulla Oripov lirikasida rang va ohang sintezi orqali inson obrazining yaratilishi	73

14. Xo‘jayeva Xilola Kalandarovna	“Oshiq Mahmud” dostonidagi yetakchi motivlar	78
15. Xojiyeva Oynisa Shabonovna	O‘zbek – turk maqollarida isl omiy qarashlar	83
16. Imomova Ruxsora Axmedovna	Jahon adabiyoti va Cho‘lpon	87
17. Komilova Dildora Shavkatovna	Til bilish, uni qadrlash g‘oyasi jadidlar va zamonaviy ijodkorlar talqinida	93
18. Hamdamova Shamshoda Saidaxmad qizi	Tohir Malik fantastikasida o‘zga sayyoralar va o‘zga sayyoraliklar talqini	103
19. Ochilova Nozima Tongotarovna	Anvar Obidjon she‘riyatida o‘simliklar obrazining badiiy talqini	107
20. Murotova Ismigul Bobomirzayevna	Maktub qahramon ruhiyatini ochuvchi vosita sifatida	111

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI

21. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna, Hamidova Mohizoda G‘ulomovna	Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyasi lingvopsixologik tahlili	116
22. Kilichev Bayramali Ergashovich	Issues of toponymy in the work “Baburnama”	121
23. G‘aybullayeva Nafisa Izatullayevna	Milliy qadriyatlarda “kasallik” va “salomatlik” konseptining obrazli talqini	125
24. Khodjaeva Dilafruz Izatilloevna, Ergasheva Maftuna Bayramaliyevna	Lexical semantic aspects of cosmonyms in english and uzbek languages	133
25. Mengliyeva Munira Baxtiyorovna	Ingliz tilida aspektual ma‘no ifodalovchi vositalarning leksikografik talqini	138
26. Sobirova Zarnigor Raximovna	Tilshunoslikda chegaralangan leksika tushunchasi va xususiyatlari	
RETRO	Беназир устозимиздан тухфа (Давоми. Боши 2024 йил, 2-сонда)	142
QUTLOV		146

**FILOLOGIYA ILMIDAGI YANGI
QADAMLAR**

148